

INTERTEKSTUALLIKNING TILSHUNOSLIKDA O'RGANILISHI

Abdullayeva Madinabonu Qurbonali qizi
O'zMU Filologiya va tillarni o'qitish:Lingvistika (o'zbek tili)
1- bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola intertekstuallik haqida umumiy ma'lumot va uning tilshunoslikdagi ahamiyati haqida ma'lumot beradi. Bundan tashqari intertekstuallikni o'zbek va jahon tilshunosligida o'rganilishi masalalarini ochib beradi va tilshunoslar tarafidan intertekstuallikning turlari haqidagi qarashlarini izohlaydi.

Kalit so'zlar. Intertekstuallik, lingvistika, shakl, mazmun, badiiy matn, allyuziya, reministsentsiya, epigraf, sarlavha, aforizm, maqol, paratekstuallik, metatekstuallik, gipertekstuallik, arxitekstuallik.

Абстрактный. В данной статье представлен обзор интертекстуальности и ее значения в лингвистике. Кроме того, раскрываются вопросы интертекстуальности в узбекском и мировом языкознании и поясняются взгляды лингвистов на виды интертекстуальности.

Ключевые слова. Интертекстуальность, лингвистика, форма, содержание, художественный текст, аллюзия, реминисценция, эпиграф, заглавие, афоризм, пословица, паратекстуальность, метатекстуальность, гипертекстуальность, архитекстуальность.

Abstract. This article provides an overview of intertextuality and its importance in linguistics. In addition, it reveals the issues of intertextuality in Uzbek and world linguistics and explains the views of linguists on the types of intertextuality.

Key words. Intertextuality, linguistics, form, content, artistic text, allusion, reminiscence, epigraph, title, aphorism, proverb, paratextuality, metatextuality, hypertextuality, architextuality

Tilshunoslik fani bugungi kunga qadar tilning barcha sathlarida yutuqlarni qo'lga kiritdi. Matn va uning xususiyatlarini o'rganish XX asr o'rtalariga kelib paydo bo'la boshladi.

Matn» so'zini qo'layotgan tilshunoslarning qariyb barchasi ushbu tushunchaga u yoki bu tarzda ta'rif berishga harakat qiladi¹. Matn - ko'p jihatli, murakkab tuzilishga ega bo'lgan qurilma, shuning uchun ham uni tavsiflashda unga xos bo'lgan semiotik, kommunikativ, strukturaviy, pragmatik, kognitiv, nominativ

¹ Qurbonova M. Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi.- T.,2014.

xususiyatlarni e'tiborga olish talab qilinadi. Shu bilan birga matn tahlil qilish jarayonida quyidagilarga e'tiborli bo'lish kerak:²

1. Shakl va mazmun birligi.
2. Makon va zamon birligi.
3. Matndagi tilning umumxalq tili va adabiy tilga munosabati.
4. Matndagi poetik aktuallashgan til vositalarini o'rni.
5. Matndagi intertekstuallik mexanizmlarini aniqlash kabi tahlil tamoyillari.

Matn tahlil qilish tamoyillaridan biri bu- intertekstuallik. Tilshunoslarning fikricha, intertekstuallik tushunchasining fanda paydo bo'lishi rus olimi M.M.Baxtinning 1924- yilda nashr etilgan "Badiiy so'z ijodiyotida mazmun, material va shakl muammosi" nomli ilmiy ishi sababchi bo'lgan. Dastlab intertekstuallik jahon tilshunosligida qo'llanila boshlagan va tilshunoslarning fikrlari o'xshash ba'zan esa turlicha bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

A.I.Gorshkov	Matn tarkibida boshqa matnlarga daxldor unsurlarning bo'lishini va ularni alohida o'rganilish kerakligini ta'kidlab, bu holatni intertekstuallik emas, "tekstlararo aloqalar" deb nomlash kerakligini ta'kidlaydi.
I.V.Arnold	Muayyan matnda aynan yoki qisman o'zgartirilib, qayta ishlanib kiritilgan boshqa matnlarni "intertekstuallik" deb nomlaydi.
J.Jenett	Matnlararo harakatni 5 turga ajratadi: intertekstuallik, paratekstuallik, metatekstuallik, gipertekstuallik, arxitekstuallik. Intertekstuallik- bir matn ichida ikki yoki undan ortiq o'zga matn parchasining kelishi.
M.Riffater	Intertekstuallik- matn va intertekstning o'zaro munosabatini tashkillashtiruvchi va tartibga soluvchi hodisadir. Intertekstni 3 ta asosiy elementlari mavjud: vaqt, inson, matn.
N.Fateyeva	Badiiy matndagi intertekst turlari sifatida quyidagilarni belgilaydi: allyuziya, reministsentsiya, epigraf, sarlavha, havola, maqol, matal, aforizm ³

Quyidagi jadvalda tilshunoslar tomonidan intertekstuallik haqidagi fikrlar va intertekstuallikning tarkibiy qismlari mavjudligini ko'rish mumkin.

Intertekstuallik hodisasi tilshunoslik, adabiyotshunoslik, faylasuf, matnshunoslar, umuman o'rganish obyekti matn bo'lgan sohalar tomonidan tadqiq

² Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopetikasi. - T., 2008

³ Xomidova M. Badiiy matn persepsiyasida intertekstuallik. - T., 2021

qilingan va hali ham bu jarayon davom etmoqda. Intertekstuallik hodisasi lingvistikaga dahldorligi haqidagi qarashlar ingliz olimi J.Kuller nomi bilan bog'liq. U o'zining "Пресуппозиция ва интертекстуаллик" nomli maqolasida intertekstuallikning matndan presupozitsiyaga bog'liqligiga o'z e'tiborini qaratdi. Shuningdek, bir necha ingliz tilshunos olimlari ham intertekstuallikning paydo bo'lishi, nazariy ahamiyati haqida tadqiqot olib bordi. Xususan, H. Fairclough, Beaugrande kabi tilshunos olimlar intertekstuallikni matn tilshunosligidan paydo bo'lgan deydi⁴.

Interstekstuallik va matnlararo munosabatlarni uch turga ajratish mumkin: majburiy, ixtiyoriy va tasodifiy. Ushbu o'zgarishlar ikkita asosiy omilga bog'liq: yozuvchining niyati va ma'lumotnomaning ahamiyati. Ushbu turlarning farqlari va toifalar o'rtasidagi farqlar mutlaq va eksklyuziv emas, aksincha, ularni bitta matn ichida birgalikda yashashga imkon beradigan tarzda boshqariladi.

Majburiy intertekstuallik- yozuvchi ataylab ikki (undan ortiq) matnni taqqoslash yoki birlashtirishga chaqirish.

Ixtiyoriy intertekstuallik- bu bitta iboraning bir necha matnlari bilan aloqani topish yoki umuman aloqasi yo'qligini aniqlash.

Tasodifiy intertekstuallik- asl matnda aniqlash nuqtasi bo'lmasligi, bu o'quvchini oldindan bilishi asosida amaga oshadi.

Shuni qo'shimcha qilishimiz kerakki, matn yaratish va o'zaro ta'sirning muayyan holatlari uchun intertekstuallikning muayyan mezonlarining dolzarbligi aniqlanishi kerak, chunki ularning hammasi ham har xil aloqa turlarida, masalan, badiiy va ilmiy kommunikatsiyada bir xil sifat ifodasiga ega emas. Bu gradual, prototipik hodisa sifatida intertekstuallik g'oyasiga mos keladi. Ushbu maqolada intertekstuallik va uning shakllari borasida fikr-mulohazalar yuritilgan bo'lib, unda turli mualliflarning qarashlari bilan birga ularga munosabatlar o'z aksini topgan. Ilmiy uslubda intertekstuallikning tutgan o'rni salmoqli hisoblanadi va bir qator olimlar tomonidan o'rganilganiga qaramasdan, o'zining dolzarbligini hanuz yo'qotmagan.

⁴ Presupposition and Interrextuality Author (s): Jonathan Culler Source:MLN. Vol.91.NO.6. Comparative Literature(Dec., 1976).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi.- T.: Fan, 2008.
2. Xomidova M. Badiiy matn persepsiyasida intertekstuallik. Fil. fan. fals.dok.diss.- T.,2021.
3. Qurbonova M. Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi.- T.,2014.
4. Presupposition and Intertextuality Author (s): Jonathan Culler Source:MLN. Vol.91.NO.6. Comparative Literature(Dec., 1976).
5. Beagrande R. A. De. Dressier W. Introduction to text linguistics. L.:N.Y.,1981. - XVI.